

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

3/1-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

3/1-сан 2025

май - июнь

*Қарақалпақстан Республикасы мектепке шекемги хәм мектеп билимлендириўи
министрлиги, Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Сапардурды АБАЕВ	Ойниса МУСУРМОНОВА
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Сафо МАТЧОН
Мавлюда АЧИЛОВА	Шукурилло МАРДОНОВ
Азизжан АБДАЗИМОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ	АбдимураТЕСЕМУРАТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Мансурбек ОНГАРОВ	Раъно ОРИПОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Норим РАХМАНОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Муқаддас РАХМАНОВА
Марифжон АХМЕДОВ	Светлана СМЕРНОВА (Москва, Россия)
Гулзабира БАБАШЕВА	Тажибай САПАРБАЕВ
Умида БАҲАДИРОВА	Мухаббат САЛАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Гўзал СОДИҚОВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Комил ГУЛЯМОВ	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қуанишбек ТҮРЕКЕЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди ҚАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Тажикал ҚУДАЙБЕРГЕНОВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Ойбахор ШАМИЕВА
Шохида ИСТАМОВА	Ризамат ШОДИЕВ
ВОХИД КАРАЕВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Мохира КУВВАТОВА	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Джавдод ПЎЛАТОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Пердебай НАЖИМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Қонысбай ЮСУПОВ
	Гулара ЮСУПОВА



СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Xolmatov M. O'smir yoshidagi o'quvchilarda madaniy bag'rikenglikni rivojlantirishning ijtimoiy psixologik modeli	456
Xolboyeva D.Q. Motivatsiya va kognitiv jarayonlarning integratsiyasi	461
Salimov A.X. Oila-mahalla-maktab ta'lim-tarbiya tizimida hamkorlikni kuchaytirish davr talabidir	465
Artikova G.X. Ta'lim muassasalarida ijtimoiylashuvning maqsadlari, vazifalari va uning yoshlar hayotidagi ahamiyati	471
Arapbayeva D.K. Qozoq oilalarining psixologik modeli va etnik xurofotlarning shakllanishi (Ch.Valixonov va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil)	476
Yuldasheva N. Sh. O'z-o'zini hurmat qilish va impostor sindromi o'rtaqidagi bog'liqlik	485
Raxmanova M.Q. Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy komponentlari	489
Normatova Z.A. Oliy ta'limda inson kapitalini samarali boshqarishning tizimli usullari	496
Kadirova X.A. Neyrotehnologiya orqali samarali ta'lim berish	502

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХАМ СПОРТ

Kazoqov R.T. Qisqa masofaga yuguruvchilarni start, startdan chiqib yugurish, burilishda va masofa bo'ylab yugurish texnikasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish	505
Sultanov R.T. Koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda integral yondashuv asosida jismoniy tayyorgarligini aniqlash usullari	510
Eraliyeva G. Sportchilarda semizlikda tana massasini boshqarish va uning oldini olish usullari	519
Матчанов Р.А. Повышение боевой подготовки сотрудников силовых структур средствами самбо	526
Нуритдинова Ш. Н., Пулатов Э. Анализ функциональных показателей физической подготовки юных спортсменов в таэквондо	539
Ғазиев Ш.Ш., Нуруллаев С.З. Развитие массового спорта в узбекистане средствами единоборств	544
Ниязова О. Ю. Тренер как педагог	549



BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY QADRIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY KOMPONENTLARI

Raxmanova M.Q.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

Tayanch so‘zlar: kasbiy qadriyatlar, pedagogik jarayon, kasbiylik, ta’lim, rivojlanish, innovatsiya, ma’naviyat, pedagogika, shaxsiyat

Ключевые слова: профессиональные ценности, педагогический процесс, профессионализм, образование, развитие, инновации, духовность, педагогика, личность

Key words: professional values, pedagogical process, professionalism, education, development, innovation, spirituality, pedagogy, personality

РЕЗЮМЕ:

Hozirgi zamonda mutaxassislarning kasbiy qadriyatlari shaxsning professional va ma’naviy shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Maqolada kasbiy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning pedagogik jarayondagi o‘rni va ularni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tadqiq etilgan. Shu maqsadda, muallif kasbiy qadriyatlarni tarbiyalashda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim usullari va innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini tadqiq qiladi. Maqolada o‘rganilgan kasbiy qadriyatlar mutaxassislarning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy faolligini oshirishga qaratilgan tarbiyaviy vositalar va metodikalarni qamrab oladi. Muhokama qilingan jihatlar, pedagogik jarayonda kasbiy qadriyatlarni shakllantirishning muhimligi, ta’lim muassasalarida bunga oid shart-sharoitlarni yaratish va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning aniq usullari asosida natijalarga erishish imkonini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – kasbiy qadriyatlarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar va metodikalarni aniqlash, shuningdek, ularni amaliy jarayonda samarali tadbir etishning imkoniyatlarini baholashdan iboratdir. Maqola mutaxassislarning ma’naviy va kasbiy rivojlanishidagi muhim omillarning ushbu pedagogik yondashuvlar orqali qanday yaxshilanishini va shuningdek, kasbiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan yangi pedagogik nazariy asoslarni taklif etadi.

РЕЗЮМЕ:

В современное время профессиональные ценности специалистов играют важную роль в профессиональном и духовном становлении личности. В статье рассматриваются содержание и сущность профессиональных ценностей, их роль в педагогическом процессе, современные педагогические технологии, направленные на их формирование. С этой целью автор исследует значение личностно-ориентированных методов обучения и инновационных педагогических технологий в формировании профессиональных ценностей. Исследуемые в статье профессиональные ценности охватывают образовательные инструменты и методики,



направленные на повышение социальной, духовной и нравственной активности профессионалов. Рассмотренные аспекты демонстрируют важность формирования профессиональных ценностей в педагогическом процессе, создания соответствующих условий в образовательных учреждениях, а также умение достигать результатов на основе конкретных методов использования инновационных технологий. Основной целью данного исследования является выявление педагогических условий и методик, необходимых для формирования профессиональных ценностей, а также оценка возможностей их эффективной реализации в практическом процессе. В статье предлагается, как посредством данных педагогических подходов можно улучшить важные факторы духовного и профессионального развития специалистов, а также новые педагогические теоретические основы, направленные на формирование профессиональных ценностей.

SUMMARY:

Nowadays, professional values of specialists play an important role in the professional and spiritual formation of a person. The article examines the content and essence of professional values, their role in the pedagogical process, and modern pedagogical technologies aimed at their formation. To this end, the author studies the importance of person-oriented educational methods and innovative pedagogical technologies in the upbringing of professional values. The professional values studied in the article cover educational tools and methodologies aimed at increasing the social, spiritual and moral activity of specialists. The aspects discussed show the importance of forming professional values in the pedagogical process, the possibility of achieving results based on the creation of appropriate conditions in educational institutions and specific methods of using innovative technologies. The main goal of this study is to identify the pedagogical conditions and methodologies necessary for the formation of professional values, as well as to assess the possibilities of their effective implementation in the practical process. The article shows how important factors in the spiritual and professional development of specialists can be improved through these pedagogical approaches, as well as offers new pedagogical theoretical foundations aimed at the formation of professional values.

Bugungi kunda jamiyatning har tomonlama keskin yuqori texnik taraqqiyoti sharoitida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy qadriyatlarini rivojlantirish dolzarb va muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, oliy ta'lim muassasalarida kasbiy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy komponentlarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali joriy etish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy qadriyatlarini rivojlantirish mazmuni zamonaviy innovatsion g'oyalar bilan boyib bormoqda. Bu esa ta'lim va tarbiya tizimining barcha bosqichlariga yangilangan qadriyat mazmunini singdirish va uni uzluksiz tatbiq etishni taqozo etadi. Shunga qaramay, bugungi kunga qadar O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislar kasbiy qadriyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish natijasida talabalarda jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni tahlil qilish, farqlash va baholash ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, mutaxassis pedagoglardan yuqori kasbiy intuitsiya, ijtimoiy ong va istiqbol bilimlariga ega bo'lishni talab etadi. Kasbiy



qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy komponenti talabalarga kasbiy faoliyatga oid ilmiy bilimlar, qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, amaliy komponent esa talabalarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki, menejment ko'nikmalari, ijtimoiy muhitga moslashish va ta'sirchanlik kabi amaliy faoliyat malakalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, bo'lajak mutaxassislar kasbiy qadriyatlarini rivojlantirish jarayonida jamoaga, jamiyatga va inson hayotiga oid munosabatlarda o'zini tutish, munosabat bildirish, psixologik talab va ko'rsatmalarga rioya qilish, faoliyatda harakatchanlik, samaradorlik va tashabbuskorlik ko'rsatish kabi muhim jihatlar ham nazariy va amaliy komponentlar doirasida alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu omillar orqali yosh avlod jamiyat taraqqiyoti jarayoniga faol hissa qo'shishga qodir bo'ladi.

Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qadriyatlarini rivojlantirish jarayonida nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy tajriba va ko'nikmalarni uyg'unlashtirish, ta'lim jarayonida yangicha pedagogik yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni texnologik yondashuv, algoritmlash va natijani oldindan belgilash tamoyillariga asoslanadi. Shu boisdan tadqiqot jarayonida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish hamda mazkur jarayonni ta'minlovchi komponentlarni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keldi.

Komponent (lotincha componens, componentis – tashkil etuvchi, tarkibiy qism) — murakkab tizimlarning muhim elementlaridan biri hisoblanadi [137, 178-b.]. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qadriyatlarini rivojlantirishda quyidagi asosiy komponentlar ajratib ko'rsatildi:

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qadriyatlarini rivojlantirish jarayonida nazariy va amaliy komponentlarning uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Nazariy komponent asosan kasbiy qadriyat tushunchasi mohiyatini, uning shakllanish mexanizmlarini va uni rivojlantirishning ilmiy asoslarini ochib beradi. Amaliy komponent esa bu nazariy bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish, o'qitishning shakl va metodlarini aniqlash, shuningdek, real pedagogik vaziyatlarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish quyidagi komponentlar asosida amalga oshiriladi:

1. Psixologik komponent – talabalarning shaxsiy-psixologik xususiyatlarini, kasbiy o'sishdagi motivatsiya va intilishlarini hisobga olgan holda, ular o'rtasida kasbiy qadriyatlarning shakllanishiga ko'maklashadi. Bu komponent doirasida



talabalarda o'z kasbiga nisbatan ijobiy munosabat, mas'uliyat hissi va ijtimoiy faollikni rivojlantirish ko'zda tutiladi.

2. Huquqiy komponent – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida kasbiy qadriyatlarining shakllanishini ta'minlaydi. Talabalar kasbiy faoliyatda amal qilinishi lozim bo'lgan huquqiy me'yorlarni o'zlashtirishlari va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini egallashlari zarur.

3. Kognitiv komponent – kasbiy faoliyatga doir nazariy bilimlarni chuqur egallash, kasbiy qadriyatlarining ilmiy asoslarini anglash va ularga ongli ravishda amal qilishni ta'minlaydi. Bu komponent orqali bo'lajak mutaxassislar kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib, ularni amaliyotga tatbiq qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

4. Aksiologik komponent – shaxsning qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishga qaratilgan. Bu komponent yordamida talabalarda kasbiy etikaga sodiqlik, kasbiy axloqiy me'yorlarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik kabi fazilatlar rivojlantiriladi.

5. Tashkiliy-pedagogik komponent – o'quv va tarbiya jarayonini kasbiy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu komponent doirasida o'qitish metodlari, tarbiyaviy tadbirlar, loyihaviy faoliyat, kasbiy amaliyot va seminar-treninglar orqali kasbiy qadriyatlar mustahkamlanadi.

6. Texnologik komponent – kasbiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, innovatsion ta'lim uslublariidan foydalanishni ko'zda tutadi. Bu orqali ta'lim jarayoni samaradorligi oshiriladi va natijalarni oldindan belgilash imkoniyati yaratiladi.

Shunday qilib, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qadriyatlarini rivojlantirish jarayoni uzviy bog'liq bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, shaxsiy fazilatlar va texnologik yondashuvlar uyg'unligida amalga oshiriladi. Mazkur komponentlar bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib, kasbiy qadriyatlarining barqaror shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni texnologik yondashuv, algoritmlash va natijani oldindan belgilash tamoyillariga asoslanadi. Shu boisdan tadqiqot jarayonida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish hamda mazkur jarayonni ta'minlovchi komponentlarni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keldi.

Olib borilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, kasbiy qadriyatlarga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilim sohasidagi qadriyatlarni egallash orqali aniqlashtiriladigan emotsional komponent



(kasbiy munosabat qadriyatlari) hamda pedagogik faoliyatda aksiologik munosabatni qaror toptirishga imkon beradigan xulq-atvor komponenti (kasbiy ko'nikmalarga doir) aniqlandi. Umumiy qabul qilingan yondashuvga ko'ra, qadriyatlar obyektiv, subyektiv va absolyut guruhlariga tasniflanadi.

Obyektiv qadriyatlar tabiat boyliklari, ijtimoiy hodisalar, kishilarning xulq-atvori va faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, subyektiv qadriyatlarga me'yoriy tasavvurlar shaklida (yaxshilik va yomonlik, baxt va omad, adolat va adolatsizlik) namoyon bo'ladigan ijtimoiy ustanovkalar va baholar tegishlidir. Absolyut qadriyatlar esa o'zgarmas bo'lib, insonlar uchun so'zsiz ahamiyatga ega (hayot, salomatlik, taraqqiyot, bilim, insoniylik).

Umuminsoniy qadriyatlar transsendental qadriyatlar sifatida qaraladi. Transsendental qadriyatlar o'z navbatida yuksak va tarixan o'zgarmas tavsifga egadir. Mazkur qadriyatlar ma'lum bir davlatning tarixiy-madaniy o'ziga xosliklari bilan bog'liqdir. Qadriyatlarni shakllantirish jarayonining tahlili shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar tizimi sosiumning ma'naviy faoliyati natijasi bo'lib, muayyan madaniy muhitni ifodalaydi va ijtimoiy ongda aks etadi.

Har bir inson uchun jamiyatning ma'naviy madaniyati va insonning ma'naviy dunyosi, ijtimoiy va individual turmush tarzi o'rtasidagi aloqa sifatida shaxsiy qadriyatlar iyerarxiyasi mavjud. Shu bilan birga, jamiyat va madaniy muhitni tavsiflovchi qadriyatlar tizimi butun jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan ma'naviy faoliyatning natijasini o'zida aks ettiradi. Jamiyatda uzluksiz va bir-biriga parallel ravishda ikkita jarayon sodir bo'ladi: yangi qadriyatlarni yaratish va madaniy merosni avloddan avlodga uzatish. Tadqiqotimizda aynan yangi qadriyatlarni yaratish, xususan, bo'lajak mutaxassisda kasbiy qadriyatlarni shakllantirish g'oyasi ilgari surildi.

Har bir insonning jamiyat hayotida ongli va mustaqil ishtirok etishi, ijtimoiy-ma'naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakati kasbiy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Bu harakatni ma'naviy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar asosida tashkil etish – zamonaviy va kelajak hayotda ma'naviy-axloqiy inqirozlarning oldini olishning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bunda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Birinchidan, kasbiy qadriyatning ma'naviy-axloqiy omillar bilan determinlashganligi ma'lum shart-sharoitlarni taqozo etadi;
- Ikkinchidan, kasbiy qadriyatga oid ma'naviy-axloqiy tamoyillar ishlab chiqilishi zarur va ular milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi lozim;
- Uchinchidan, axloqiy normalar va tamoyillar umumiy insonparvarlik mezoniga asoslanib, butun insoniyat uchun kasbiy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlashi kerak;



- To'rtinchidan, yoshlarda ma'naviy-axloqiy tamoyillarni shakllantirish orqali kasbiy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qadriyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiyaviy ishlarni talablar darajasida tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligi aniqlanadi:

- o'quv dasturlari va fanlar bo'yicha ma'ruza matnlariga kasbiy qadriyatlarga oid materiallarning kiritilishi, ular keng ifoda qilinishi va metodik jihatdan asoslanishi;
- o'quv xonalarining kasbiy qadriyatlarga oid materiallar bilan jihozlanishi;
- zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlanishi;
- talabalarni kasbiy qadriyatlarga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-metodik adabiyotlar va elektron axborot majmuasi bilan ta'minlash;
- talabalarni kasbiy qadriyatlarga oid didaktik materiallar bilan ta'minlash;
- auditoriyalarda inson ijtimoiylashuvining ahamiyatini ta'kidlovchi qulay ijodiy-psixologik muhit yaratish;
- pedagoglar jamoasida kasbiy qadriyatlar o'rganilishi va o'qitishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni tashkil etish.

Talabalar kasbiy qadriyatlarini rivojlantiruvchi tarbiyaviy komponent – bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qadriyat kompetentligini yuqori darajaga ko'tarish jarayonida kafedralardagi tarbiyaviy ishlar va fakultet tadbirlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlarning ilmiy tahlilini o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, kasbiy qadriyatga oid mazmundagi ilmiy axborotlar bazasidan samarali foydalanish, tizimlashtirilgan ish dasturini ishlab chiqish va tadbirlar majmuasini tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Tajriba-sinov davrida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislar bilan darsdan tashqari sharoitda jamoatchilik vakillari ishtirokida kasbiy qadriyatlarga oid tadbirlar tashkil etilishi ko'zda tutiladi.

Qilgan tahlil va tadqiqotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, sohaviy mutaxassislar tayyorlash jarayonida kasbiy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish muosir ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Kasbiy qadriyatlar faqat mutaxassislik bilimini egallash bilan cheklanmay, balki shaxsning ma'naviy kamoloti va jamiyatdagi ijtimoiy faoliyatini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida kasbiy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganildi hamda ularning rivojlanishida pedagogik muhit, ta'lim mazmuni va tarbiyaviy faoliyatning ta'siri katta ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, shaxsga



yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish va talabalarning faol ishtirokini ta'minlash orqali kasbiy qadriyatlarni samarali shakllantirish mumkinligi ta'kidlandi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qadriyatlarini shakllantirish ularning professional salohiyatini oshirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashlariga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida kasbiy qadriyatlarga asoslangan uzviy va tizimli tarbiyaviy ishlarni tashkil etish orqali mutaxassislarni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida voyaga yetkazishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Sh.A., Askarov A. Umumiy pedagogika. / O'quv qo'llanma. – T.: O'zMU, 2019. – 374 b.
2. Абдуллаева Ш.А. Педагогические технологии развития познавательных творческих способностей младших школьников: дисс. канд. пед. наук. – Т.: УзНИПИ, 2005. – 120 с.
3. Алиқулова М.М. Инновацион педагогика. Ўқув услубий қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2012. – 130 б.
4. Aliqulova M.M., Dekhkambaeva Z.A. Improving Educational Work among Minors as Important Factor of Preventing Spiritual Threats. Eastern European Scientific Journal. DOI 10.12851/EESJ201808. – P. 220-232.
5. Asqarova O'. Gulyamova N. Pedagogik menejment / O'quv qo'llanma. – Namangan: Usmon Nosir media nashriyoti, 2021. – 207 b.
6. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А. Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007. – 274 б.
7. Бобоев Х, Ғофуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий-маърифий таълимотлар таракқиёти. – Т.: Янги аср авлоди. 2001.
8. Васильев Ю.В. Педагогическое управление в школе: методология, теория, практика: научное издание. – М.: Педагогика, 1990. – 144 с.
9. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт нашриёти, 2011. – 206 б.
10. Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna Problems of Improving Social Competence of Students in the Process of Higher Pedagogical Education// Central asian journal of literature, philosophy and culture 12 Dec 2022 B.48-52
11. Mukaddas Rakhmanova "Scientifik and pedagogical bases of preparation of students for development of social activity in the procrss of professional and pedagogical education" B.283-287
12. Raxmanova M.Q Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // «Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'» 2022. №3/3. B. 30-34
13. Raxmanova M.Q. Pedagogik texnologiyalar asosida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish / Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2022-yil 14-15-oktyabr. B. 583-586
14. Y J.E.Usarov, M.Q.Raxmanova Yoshlarning intellektual salohiyati va faolligini rivojlantirishda pedagogik psixologik omillari / Fan, Ta'lim va amaliyotintegratsiyasi ISSN: 2181-1776 2021 №4 Aprel. B.78-82
15. M.Q.Raxmanova, U.A.Ismadiyarova. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Uzbekistan www.ares.uz. B.514-522



OLIY TA'LIMDA INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISHNING TIZIMLI USULLARI

Normatova Z.A.

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar
Vazirligi Fargona akademik litseyi*

Tayanch so'zlar: inson kapitali, oliy ta'lim, intellektual kapital, innovatsion yondashuv, xalqaro hamkorlik, pedagogik qobiliyat, rivojlanish strategiyasi, ilmiy shart-sharoit.

Ключевые слова: человеческий капитал, высшее образование, интеллектуальный капитал, инновационный подход, международное сотрудничество, педагогическая компетентность, стратегия развития, научные условия.

Key words: human capital, higher education, intellectual capital, innovative approach, international cooperation, pedagogical competence, development strategy, scientific conditions.

РЕЗИЮМЕ:

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida inson kapitali boshqaruvini shakllantirish va amalga oshirishning ahamiyati tahlil qilingan. Inson kapitali – bu ta'lim muassasalari faoliyatining eng muhim resurslaridan biri hisoblanib, uni samarali boshqarish oliy ta'limning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Maqolaga asosan, oliy ta'lim muassasalarining tashqi va ichki muhiti, inson kapitali bilan ishlash samaradorligini baholash va tegishli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish zarurligi haqida so'z boradi. Maqolada, yoshlarning intellektual kapitalini rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning pedagogik va ilmiy qobiliyatlarini oshirish, hamda xalqaro hamkorlikning ahamiyati va talabalarining yangi innovatsion ta'lim dasturlari orqali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar beriladi. Shuningdek, inson kapitalini ta'lim mazmuni bilan bog'lash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va yuqori darajadagi intellektual kapitalni shakllantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida yangi siyosatlar va strategik yo'nalishlar zarurligi ta'kidlangan.

РЕЗИЮМЕ:

В статье анализируется важность формирования и внедрения управления человеческим капиталом в организациях высшего образования. Человеческий капитал является одним из важнейших ресурсов в деятельности образовательных учреждений, и эффективное управление им играет важную роль в развитии высшего образования. В статье рассматриваются внешняя и внутренняя среда высших учебных заведений, необходимость оценки эффективности работы с человеческим капиталом, а также необходимость разработки соответствующих инвестиционных программ. В статье даны рекомендации, направленные на развитие интеллектуального капитала молодежи, повышение педагогического и научного мастерства профессорско-преподавательского состава, а также подчеркивается важность международного сотрудничества и обеспечение развития студентов посредством новых инновационных образовательных программ. В нем также подчеркивается необходимость разработки новой политики и стратегических направлений в высших учебных заведениях для связи челове-



ческого капитала с образовательным содержанием, внедрения инновационных подходов и создания интеллектуального капитала высокого уровня.

SUMMARY:

The article analyzes the importance of the formation and implementation of human capital management in higher education organizations. Human capital is one of the most important resources in the activities of educational institutions, and its effective management plays an important role in the development of higher education. The article discusses the external and internal environment of higher education institutions, the need to assess the effectiveness of work with human capital, as well as the need to develop appropriate investment programs. The article provides recommendations aimed at developing the intellectual capital of young people, improving the pedagogical and scientific skills of the teaching staff, and emphasizes the importance of international cooperation and ensuring the development of students through new innovative educational programs. It also emphasizes the need to develop new policies and strategic directions in higher education institutions to link human capital with educational content, implement innovative approaches and create high-level intellectual capital.

Inson kapitali va uning tarkibiy qismlarining ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tizim ma'lum omillar ta'sirida shakllanib, rivojlanadi. Biroq, inson kapitalining ijobiy xususiyatlarini to'liq amalga oshirish uchun unga maqsadli ta'sir ko'rsatish zarur. XXI asrda global rivojlanish va uning istiqbollari inson resurslarini boshqarish konsepsiyasining inson kapitalini amalga oshirish konsepsiyasi bilan almashinishini talab qiladi.

Inson resurslarini boshqarish konsepsiyasi, har bir sohaga professional xodimlarni jalb qilish, ularni o'qitish va saqlash, iqtisodiy maqsadga muvofiq ravishda inson resurslarini shakllantirish, ulardan foydalanish va rivojlantirishga investitsiyalar kiritish bilan tavsiflanadi. Inson resurslarini boshqarish - bu kompaniya yoki tashkilotdagi odamlarni samarali boshqarish uchun strategik va izchil yondashuv bo'lib, raqobatdosh ustunlikka erishishga yordam beradi. Menejment yondashuvi nuqtai nazaridan, bu tizim mehnat faoliyatiga doimiy va yollanma ishlarni amalga oshirish, tashkilotlarda ixtisoslashgan funksiyalarni bajarish uchun zarur xodimlarni jalb etish orqali amalga oshiriladi.

Inson resurslari shaxsning ma'lum faoliyat turini amalga oshirish qobiliyatini tavsiflovchi fazilatlar va xususiyatlar to'plami sifatida, ularni yagona tashkilot, mintaqa yoki davlat kontekstida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Inson kapitalini boshqarish bugungi kunda davlat va jamiyat taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib, o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Bu konsepsiya, ma'lum bir sohaga taalluqli bilim, ko'nikma, aqliy salohiyat va qobiliyatlarni to'g'ri yo'nalishda rivojlantirishni ta'minlash bilan birga, strategik kasbiy yo'nalganlikni ham belgilaydi.

Inson kapitalining bosh maqsadi - har bir shaxsning hayoti davomida to'plagan bilim, ko'nikma, sog'liq, jismoniy va ruhiy barqarorlik omillari orqali jamiyatning foydali a'zosiga aylanishiga qaratilgan. Amerikalik olimlar Teodor



Shuls va Geri Bekker inson kapitali tushunchasining ko'p qirrali ekanligini ta'kidlashgan va bu tushuncha dunyo iqtisodiy tafakkurida yangi ma'no kasb etgan. Shuls ta'kidlashicha, kambag'al inson farovonligini oshirishning asosiy omili texnika emas, balki uning bilimlaridir. Insonning qobiliyatlari esa tug'ma yoki oqitirilgan bo'lishi mumkin. Bekker esa, inson kapitalini har bir kishining bilim, malaka va motivatsiya to'plami sifatida ko'rib, uning jismoniy kapitaldan farqini, uning ajralmas xususiyatida ko'rsatadi.

Inson kapitali shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, ayniqsa, demografik omillar, ya'ni aholining son jihatdan o'sishi va uning sog'liq bilan bog'liq sifat omillari muhimdir. Jamiyatda ayollar va erkaklarning tug'ilishdagi balansi, tug'ilish va o'lim o'rtasidagi muvofiqlik va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi ham bu jarayonga ta'sir qiladi. Inson kapitali va intellektual kapital o'rtasidagi farqni tahlil qilganda, inson kapitali kundalik bilim va muntazam ishlarga, intellektual kapital esa yangi bilimlar va ijodiy ishlarga asoslanadi. Inson kapitali bilim va ko'nikmalarni kundalik faoliyatda qo'llashni, intellektual kapital esa innovatsiyalar va ijodkorlikni ta'minlashni anglatadi.

Inson va intellektual kapitalni rivojlantirish ijtimoiy va siyosiy qo'llab-quvvatlash, jamiyatning barcha sohalarida innovatsion bilimlar va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Bu davlat va jamiyatning global raqobatdoshligini oshiradi va xalqaro maydonda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, intellektual kapital innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda. Intellektual kapitalni tashkil etuvchi uch asosiy komponent: inson kapitali, tarkibiy kapital va munosabatlar kapitali yoki ijtimoiy kapital sifatida ajratiladi. Inson kapitali tashkilot xodimlari tomonidan to'plangan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga olsa, tarkibiy kapital bu bilimlarni tashkiliy jihatdan ta'minlaydi, ijtimoiy kapital esa, shaxslararo munosabatlar va ta'lim jamoalari o'rtasidagi aloqalarni ifodalaydi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi islohotlar o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ijobiy o'zgarishlar yangi o'quv dasturlari, modulli o'qitish, masofaviy ta'lim elementlarining takomillashuvi, talabalarning mustaqil ish faoliyatini oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida inson kapitali ta'lim tizimida to'planadi va rivojlanadi, bu esa inson kapitalini boshqarishning yangi tizimini yaratish zarurligini ko'rsatadi. I.N. Krakovskaya oliy ta'lim muassasalarida inson kapitalini boshqarishning quyidagi tizimlarini ajratadi:

- Talaba va pedagogik jamoadan ilmiy izlanmalarni kuchaytirish.
- Pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga integratsiyalash.